



Qurilish ishlari

2018 yil yanvar-iyun oylari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 288,2 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 5,2 foiz punktga o'sgan.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 14,3 mlrd.so'mni yoki 79,9 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,1 foiz punktga pasaygan.

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 0,9 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 26,1 foizni, mos ravishda, Oqoltin tumanida – 0,8 mlrd.so'm yoki 63,1 foizni, Mirzaobod tumanida – 3,4 mlrd.so'm yoki 66,1 foizni tashkil etdi.


RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **288,2** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi **-5,0 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar **-76,5 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi-**18,5 foiz**

Qurilish ishlari (mlrd.so'm)




**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-iyun uchun**



**2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	288,2	105,2
Guliston sh	94,9	115,8
Shirin sh	16,4	113,1
Yangier sh	25,5	100,2
Boyovut	22,5	106,5
Guliston	15,9	100,5
Mirzaobod	26,3	100,8
Oqoltin	18,9	109,8
Sardoba	8,0	109,6
Sayxunobod	10,4	115,4
Sirdaryo	31,3	101,8
Xovos	18,1	73,0


**2018 yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari
umumiy hajmida hududlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 32,9 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 10,9 % ni, Yangier shahrida bajarilgan qurilish ishlari 8,8 % ni, va Mirzaobod tumanida 9,1 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,8 % ni va Sayxunobod tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.

**Yanvar - iyun oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish
ishlari (mlrd.so'm)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,0% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 18,5% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,5 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi





2017 yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 267,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 92,8 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 foiz punktiga o'sdi.



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova
(0371) 230-86-27